
Seminar – trening. Psixologlar bilimi boyitildi

Ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo'lgan bolalar bilan ishlash - yoshlar tarbiyasi va kelajagi bilan bog'liq muhim masala.

Viloyat hokimligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasi, viloyat prokuraturasi hamda voyaga etmaganlarning muammolarini o'rganish va psixologik yordam ko'rsatish markazi hamkorlikda Farg'ona neft va gaz sanoati kasb-hunar kollejida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari psixologlari uchun seminar-trening tashkil etildi.

“Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda tarbiyasi og'ir, inqirozli vaziyatdagi, notinch oila farzandlari bilan olib boriladigan psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlar” mavzusida bo'lib o'tgan seminarda viloyatimizdagi barcha akademik litsey va kasb-hunar kollejlari psixologlari ishtirok etishdi.

O'quv seminarining ochilishida viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasi boshlig'i Qodirjon Ishanov so'zga chiqib, voyaga etmagan yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit bilan yaqindan tanishish, o'quvchi-yoshlarning hayotiy muammolarini o'rganish va ular uchun sog'lom muhitni ta'minlashda mutaxassis psixologlarning alohida o'rni borligi, ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud bo'lgan bolalar bilan ishlash yosh avlod kelajagi bilan bog'liq muhim masala ekanligini ta'kidladi.

Ishtirokchilar beshta kichik guruhlariga bo'lingan holda seminar ishini olib borishdi.

Seminarda Farg'ona davlat universiteti xuzuridagi xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash hududiy markazi direktori Ma'murjon Otajonov “Inson xulqini modellashtirish” nomli ma'ruzasida psixologlarning tarbiyasi og'ir, inqirozli vaziyatdagi, notinch oila farzandlari bilan olib boradigan ishlari mazmun-mohiyatini ilmiy va hayotiy dalillar bilan asoslab berdi. Moderatorlar M. Uzaqova, M. Akbarov, Z. Ergasheva, F. Mirzajonova, A. Xojimatovlar belgilangan mavzu yuzasidan amaliy ko'nikmalar berishdi.

Mashg'ulotlarda “YOshlar tarbiyasi -dolzarb masala” nomli videorolik, “Deviant xulqning shakllanish qonuniyatlari va uning profilaktikasi”, “To'liq bo'lmagan oila farzandlariga ijtimoiy-psixologik yordam” mavzusidagi multimedia dasturlari namoyish qilindi. SHuningdek, “Nima muhim?”, “Ranglar metodikasi”, “Qum terapiyasi”, “SHar terapiyasi” singari metodlar asosida amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi va ta'sirchanligi ta'minlandi.

Dilnavoz QO'LDOSHEVA.

Sherzod QORABOEV olgan surat.

2018-01-10 17:23:22